O‘RTA OSIYO MUALLIFLARI ASARLARIDA UBAYDULLAXON FAOLIYATI

Boboxonov Lochinbek Yunusali o‘g‘li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 2-bosqich magistranti
E-mail: officialbobokhonov@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu ilmiy maqolada XVI asrda Movarounnahrda hukmronlik qilgan Shayboniylar sulolasining ko‘zga ko‘ringan davlat arbobi, mohir sarkarda va ilm-fan homiysi Shayboniy Ubaydullaxon (1487–1539) faoliyatining mahalliy muarrixlar asarlarida yoritilishi kompleks va manbashunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etiladi. Tadqiqot davomida Hasan Xoja Nisariyning “Muzakkiri ahbob”, Zayniddin Vosifiyning “Badoe' ul-vaqoe", Mirza Muhammad Haydar Mirzoning “Tarixi Rashidiy”, Hofiz Tanish Buxoriyning “Sharafnomayi Shohiy” (“Abdullanoma”), Muhammadyor Qatag‘anning “Musaxxir al-bilod” hamda Fazlulloh ibn Ro‘zbehon Isfahoniyning “Mehmonnomayi Buxoro” kabi birlamchi forsiy va turkiy yozma manbalaridagi faktik ma'lumotlar atroflicha tahlil qilingan. Ubaydullaxonning Movarounnahr mustaqilligini Safaviylar tajovuzidan asrab qolishi, Ko‘li Malik va G‘ijduvon janglaridagi harbiy strategiyasi, Buxoroni Buxoro xonligining poytaxtiga aylantirishi, Yassaviylik va Naqshbandiya tariqatlari bilan aloqadorligi hamda uning adabiy-ilmiy me'rosi xolis baholangan.

Kalit so‘zlar / Keywords / Ключевые слова: Shayboniylar, Ubaydullaxon, Buxoro xonligi, Ko‘li Malik jangi, G‘ijduvon jangi, manbashunoslik, Hofiz Tanish Buxoriy, Zayniddin Vosifiy, Mirza Muhammad Haydar.

ABSTRACT : This scientific article provides a comprehensive source-critical analysis of the historical representation of Shaybanid Ubaydullah Khan (1487–1539), an outstanding statesman, brilliant military commander, and patron of arts and sciences in 16th-century Transoxiana, as depicted in the works of indigenous chroniclers. The study systematically examines primary Persian and Turkic narrative sources, including Hasan Khwaja Nisari's “Muzakkir al-Ahbab”, Zayn ad-Din Vasifi's “Bada'i al-Waqa'I”, Mirza Muhammad Haydar's “Tarikh-i Rashidi”, Hafiz Tanish Bukhari's “Sharafnama-yi Shahi” (“Abdullanoma”), Muhammadyar Qataghan's “Musakkhir al-Bilad”, and Fazlallah ibn Ruzbihan Isfahani's “Mihmannama-yi Bukhara”. The paper evaluates Ubaydullah Khan's tactical genius in the decisive battles of Kuli Malik and Ghijduvan (1512), his crucial role in preserving Transoxiana's independence against Safavid expansion, the official transfer of the capital to Bukhara, his spiritual ties with the Naqshbandi and Yesevi Sufi orders, and his multifaceted literary and theological legacy.

Kalit so‘zlar / Keywords / Ключевые слова: Shaybanids, Ubaydullah Khan, Bukhara Khanate, Battle of Kuli Malik, Battle of Ghijduvan, historiography, Hafiz Tanish Bukhari, Zayn ad-Din Vasifi, Mirza Muhammad Haydar.

АННОТАЦИЯ: В данной научной статье проводится источниковедческий и историографический анализ отражения государственной, военной и культурно-просветительской деятельности Шейбанида Убайдулла-хана (1487–1539) в трудах местных историков XVI века. В исследовании детально анализируются сведения таких первичных персидских и тюркских письменных памятников, как «Музаккир ал-ахбаб» Хасана Ходжи Нисари, «Бадаи ал-вакаи» Зайнаддина Васифи, «Тарих-и Рашиди» Мирзы Мухаммада Хайдара, «Шарафнама-йи шахи» («Абдулланаме») Хафиза Таныша Бухари, «Мусаххир ал-билад» Мухаммадьяра Катагана и «Михманнама-йи Бухара» Фазлаллаха ибн Рузбихана Исфахани. Раскрываются полководческий талант Убайдулла-хана в сражениях при Кули-Малик и Гиждуване (1512 г.), его определяющая роль в защите независимости Мавераннахра от

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

экспансии Сефевидов, переносе столицы в Бухару, а также его духовно-религиозное и литературное наследие.

Kalit so‘zlar / Keywords / Ключевые слова: Шейбаниды, Убайдулла-хан, Бухарское ханство, битва при Кули-Малик, битва при Гиждуване, источниковедение, Хафиз Таныш Бухари, Зайнаддин Васифи, Мирза Мухаммад Хайдар.

KIRISH

XVI asrning birinchi choragida Markaziy Osiyo, xususan Movarounnahr va Xuroson hududida ro‘y bergan ijtimoiy-siyosiy, harbiy va ma'naviy-madaniy jarayonlar o‘zbek davlatchiligi tarixida alohida burilish bosqichini tashkil etadi. Temuriylar saltanatining ichki feodal tarqoqlik hamda taxt uchun o‘zaro kurashlar oqibatida inqirozga yuz tutishi va DaSsti Qipchoqdan Muhammad Shayboniyxon boshchiligidagi ko‘chmanchi o‘zbek qabilalarining kirib keliShi natijasida Movarounnahrda yangi siyosiy kuch – Shayboniylar sulolasi hukmronligi o‘rnatildi [1]. Ushbu murakkab va tahlikali davrda Movarounnahr xalqlarining milliy, diniy va hududiy mustaqilligini saqlab qolish, uni tashqi Safaviylar va Boburiylarning harbiy-siyosiy tajovuzlaridan himoya qilish hamda yagona markazlashgan Buxoro xonligiga asos solishda Shayboniy sulton va hukmdor Shayboniy Ubaydullaxon (1487–1539) g‘oyat ulkan tarixiy xizmat ko‘rsatdi [2].

Mahalliy muarrixlar va davr tarixnavislari o‘z asarlarida Ubaydullaxon shaxsiyati, uning harbiy taktikasi, siyosiy va diplomatik mahorati, bunyodkorlik faoliyati hamda yuksak ma'naviy-adabiy salohiyatiga alohida e'tibor qaratganlar. Shayboniylar davri tarixshunosligi va manbashunosligini ilmiy asosda tadqiq etgan atoqli akademik Bo‘riboy Ahmedov, professor Z.Muqimov, B.Jurayev, A.Ziyo hamda boshqa ko‘plab zamonaviy tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, XVI asrda yaratilgan forsiy va turkiy yozma manbalar Movarounnahrning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotini xolis hamda haqqoniy tiklashda asosiy birlamchi poydevor bo‘lib xizmat qiladi [3].

Ushbu ilmiy maqolaning asosiy maqsadi – XVI–XVII asrlarda Movarounnahr va unga tutash hududlarda bitilgan mahalliy muarrixlar (Hasan Xoja Nisariy, Zayniddin Vosifiy, Mirza Muhammad Haydar Mirzo, Hofiz Tanish Buxoriy, Muhammadyor Qatag‘an va Fazlulloh ibn Ro‘zbehon Isfahoniy) asarlarida Shayboniy Ubaydullaxon faoliyatining yoritilish darajasi, manbalarning qiyosiy-tarixiy tahlili hamda xon shaxsining o‘zbek davlatchiligi tarixidagi o‘rnini ilmiy nuqtai nazardan ochib berishdan iboratdir.

XVI ASR MAHALLIY TARIXNAVISLIGI VA MANBALAR TASNIFI

Shayboniylar hukmronligi davrida (1500–1601) Movarounnahr va Buxoro xonligida tarixnavislik va adabiy muhit yuksak darajada rivojlandi. Davr taqozosi hamda xon va sultonlarning bevosita homiyligi natijasida o‘nlab nodir tarixiy, memuar va biografik asarlar yaratildi [4]. Manbashunoslik nuqtai nazaridan ushbu manbalarni tili va xarakteriga ko‘ra ikki asosiy guruhga bo‘lish mumkin: forsiy dildagi rasmiy saroy xronikalari hamda eski o‘zbek (turkiy) tilida bitilgan tarixiy-badiiy dostonlar va xronikalar [5].

---

[1] Ahmedov B.A. O‘zbekiston tarixi manbalari. – ToShkent: O‘qituvchi, 2001. – B. 152–158.

[2] Nurkulova R.R. Ubaidullakhan is a talented army leader // Web of Journals: Monthly Peer Reviewed Journal, Vol. 3, Issue 3, March 2025. – P. 180–184.

[3] Jurayev B.T. XVI – XVIII asr o‘rtalarida Buxoro xonligining tarixShunosligi. Monografiya. – ToShkent: Denov TPDI, 2023. – B. 58–62.

[4] Fayzraxmanova Z.I. Shayboniylar davriga oid manbalar tahlili // O‘zMU mustaqil tadqiqotchisi jurnali, Vol. 4, Issue 7, 2024. – B. 381–382.

[5] Ziyo A. O‘zbek davlatchiligi tarixi (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar). – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 235–241.

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

1.1. Forsiy dildagi tarixiy va memuar manbalar

1. Fazlulloh ibn Ro‘zbehon Isfahoniyning “Mehmonnomayi Buxoro” (1509-yil) hamda “Suluk ul-muluk” (1514-yil) asarlari. Eronlik mashhur sunniy olim va davlat arbobi Isfahoniy Muhammad Shayboniyxon va keyinchalik Ubaydullaxon saroyida xizmat qilib, Movarounnahrdagi harbiy-siyosiy jarayonlarni va davlat boshqaruvi tizimini bevosita kuzatuvchisi sifatida qalamga olgan [6]. Asarda Shayboniy sultonlarning harbiy kengashlari, ularning yer-mulk va o‘ljalarni taqsimlash tartibi hamda Ubaydullaxonning ma'muriy va huquqiy qarorlari atroflicha yoritilgan [7].

2. Zayniddin Mahmud ibn Abdal-Jalil Vosifiyning “Badoe' ul-vaqoe” (“Nodir voqealar”, 1538–1539-yillar) nomli tarixiy-memuar asari. 1485-yilda Hirotda tug‘ilib, so‘ngra Movarounnahrga ko‘chib o‘tgan Vosifiy Buxoro, Samarqand va Toshkentdagi ijtimoiy-adabiy muhitni, xususan Ubaydullaxon va boshqa Shayboniy sultonlarning ilmiy majlislari, adabiy mushoiralari hamda harbiy harakatlarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rib tasvirlagan[8]. Asarda 1512–1532-yillardagi voqealar va Buxorodagi madaniy hayot haqida noyob ma'lumotlar berilgan [9].

3. Mirza Muhammad Haydar Mirzoning “Tarixi Rashidiy” (1541–1546-yillar) asari. Toshkent hokimi Yunusxonning nabirasi va Boburning xolavachchasi bo‘lgan Mirza Haydar Movarounnahr va Toshkentdagi siyosiy kurashlarni betaraf va haqqoniy yoritgan[10]. U Ubaydullaxonning Shaxsiy fazilatlari, uning harbiy jasorati va ma'naviy yuksakligini alohida e'tirof etib, xon haqida “...u shijoat o‘rmonidagi sher, saxovat dengizidagi durdonadir” deb yuksak baho bergan[11].

4. Hasan Xoja Nisariyning “Muzakkiri ahbob” (“Do‘stlar yodnomasi”, 1566-yil) tazkirasi. Buxorolik mashhur olim va shoir Nisariy o‘z asarida XVI asrda Movarounnahr va qo‘shni o‘lkalarda yashab o‘tgan 250 dan ortiq shoir, olim va davlat arboblari haqida ma'lumot beradi[12]. Ubaydullaxonning “Ubaydiy” taxallusi bilan bitgan turkiy va forsiy She'rlari hamda uning saroyida to‘plangan ilm ahliga ko‘rsatgan homiyligi tazkirada yuksak ehtirom bilan tilga olingan[13].

5. Hofiz Tanish ibn Mir Muhammad al-Buxoriyning “Sharafnomayi Shohiy” (“Abdullanoma”, 1584–1590-yillar) asari. Ushbu yirik xronika Shayboniylar sulolasi tarixini, xususan Ubaydullaxon va Abdullaxon II davrini o‘rganishda eng birlamchi manbadir[14]. Hofiz Tanish Buxoriyning otasi Mir Muhammad Ubaydullaxon saroyida xizmat qilgani bois, muallif xonning Buxoroni poytaxtga aylantirishi, bunyodkorlik ishlari va harbiy g‘alabalari to‘g‘risida o‘ta qimmatli ma'lumotlarni bergan[15].

---

[6] Fazlulloh ibn Ro‘zbehon Isfahoniy. Mehmonnomayi Buxoro (Zapiski buxarskogo gostya) / Tarjimon R.P.Jalilova, muharrir A.K.Arends. – Moskva: Nauka, 1976. – S. 162–202

[7] Muqimov Z. Shayboniylar davlati va huquqi (Tarixiy-huquqiy tadqiqot). – Toshkent: Adolat, 2007. – B. 43–48.

[8] Zayniddin Mahmud Vosifiy. Badoe' ul-vaqoe' (Nodir voqealar) / Forsiydan Naim Norqulov tarjimasi. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1979. – B. 39–68.

[9] Boldyrev A.N. Zaynad-din Vasifi, tadjikskiy pisatel XVI v. – Stalinabad: GPB, 1957. – S. 45.

[10] Mirza Muhammad Haydar. Tarixi Rashidiy / Tarjimonlar: V.Rahmonov, Ya.Egamova. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 243–250.

[11] Mirza Muhammad Haydar. Tarixi Rashidiy / Vvedeniye i perevod A.Urunbayeva, R.P.Djalilovoy, L.M.Yepifanovoy. – Tashkent: Fan, 1996. – S. 399, 728.

[12] Hasan Xoja Nisariy. Muzakkiri ahbob (Do‘stlar yodnomasi) / Tarjimon I.Sultonov. – Toshkent: Meros, 1998. – B. 499.

[13] Norik B.V. Rol' Shibanidskix praviteley v literaturnoy jizni Maverannaxra XVI v. // Raxmat-name. – SPb., 2008. – S. 230.

[14] Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma (Sharafnomayi Shohiy). Birinchi kitob / Fors tilidan S.Mirzayev tarjimasi, so‘z boshi va izohlar B.Ahmedov. – ToShkent: SHarq, 1999. – B. 7–9, 416.

[15] Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma (Sharafnomayi Shohiy). Ikkinchi kitob / Fors tilidan S.Mirzayev va Yu.Hakimjonov tarjimasi. – Toshkent: SHarq, 2000. – B. 61, 288.

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

1.2. Turkiy va boshqa mahalliy xronikalar

Shayboniylar davrida turkiy tildagi tarixshunoslik ham jadal rivojlandi. Muhammad Solihning “Shayboniynoma” dostoni, Mulla Shodiyning “Fathnoma”, Abdulloh ibn Muhammad Nasrullohiyning “Zubdat ul-osar” hamda muallifi noma'lum “Tavorixi guzida – Nusratnoma” kabi manbalar Shayboniyxon va uning jiyani Ubaydullaxonning Movarounnahrni birlashtirish yo‘lidagi dastlabki harbiy yurishlarini xronologik tartibda yoritib bergan[16]. Shuningdek, XVII asrda Muhammadyor ibn Arab Qatag‘an tomonidan bitilgan “Musaxxir al-bilod” (“Mamlakatlarni bo‘ysundiruvchi”) asarida Ubaydullaxonning Buxoro xonligi taxtidagi faoliyati va Buxoroni davlatning siyosiy markaziga aylantirish jarayoni batafsil aks ettirilgan[17].

UBAYDULLAXONNING HARBIY-SIYOSIY FAOLIYATI VA DAVLAT MUSTAQILLIGINI SAQLASH YO‘LIDAGI KURASHI

Shayboniy Ubaydullaxon (to‘liq ismi Ubaydullah Sulton ibn Mahmud Sulton) 1487-yilda dunyoga kelgan bo‘lib, Muhammad Shayboniyxonning ukasi Mahmud Sultonning o‘g‘li edi[18]. U yoshligidanoq mohir harbiy tashkilotchi va shijoatli sarkarda sifatida ko‘zga tashlandi. 1510-yilda Marv yaqinidagi fojiali jangda Muhammad Shayboniyxon halok bo‘lgach, Movarounnahrda og‘ir siyosiy inqiroz va bosqin xatari yuzaga keldi[19]. Eron safaviylari Shohi Ismoil I va uning shia qo‘shinlari hamda temuriy Zahriddin Muhammad Bobur birlashib, Movarounnahrni egallash va bu yerda Safaviylar hukmronligi hamda shialik mazhabini o‘rnatishga harakat qildilar [20].

2.1. Ko‘li Malik va G‘ijduvon janglari (1512-yil): Harbiy takatika va zafar

1511–1512-yillarda Movarounnahr hududining katta qismi, jumladan Samarqand va Buxoro Bobur hamda Safaviy qo‘shinlari nazorati ostiga o‘tdi. Shayboniy sultonlar Turkiston va DaShti Qipchoq hududlariga chekinishga majbur bo‘ldilar. Mana Shunday hal qiluvchi pallada 25 yoshli Ubaydulla Sulton Buxoro va Movarounnahrni ozod qilish uchun Shayboniy sultonlarni bir bayroq ostiga birlashtirdi[21].

1512-yil aprel oyida Buxoro yaqinidagi Ko‘li Malik bo‘yida birinchi buyuk jang bo‘lib o‘tdi. Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” va Hasan Xoja Nisariyning “Muzakkiri ahbob” asarlarida keltiriliShicha, Ubaydullaxon qo‘shini bor-yo‘g‘i 3 ming kishidan iborat bo‘lgan, Bobur Mirzo qo‘shini esa ulardan bir necha baravar ko‘p edi[22]. Ubaydullaxon favqulodda harbiy hiyla va taktikani qo‘lladi: u Buxoro qamalini soxta ravishda bekor qilib, Xorazm cho‘llari tomonga chekindi. Dushman hushyorlikni yo‘qotib, tartibsiz harakat qila boshlagach, Ubaydullaxon to‘satdan qarshi hujumga o‘tdi va 1512-yil 28-aprelda Ko‘li Malik jangida Bobur qo‘shinini mutlaqo tor-mor etdi [23].

Ko‘li Malikdagi mag‘lubiyatdan so‘ng Shoh Ismoil I o‘zining eng shafqatsiz sarkardasi Amir Najmi Soni boshchiligidagi 60 ming kishilik saralangan Safaviy qo‘shinini Movarounnahrga yubordi.

---

[16] Muhammad Solih. Shayboniynoma (Doston) / Nashrga tayyorlovchi E.Shodiyev. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1989. – B. 217, 336.

[17] Muhammadyor ibn Arab Qatag‘an. Musaxxir al-bilod / Fors tilidan tarjima va izohlar: I.Bekjonov, D.Sangirova. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – B. 429–430.

[18] Rajabov Q., Ochilov E. Ubaydullanoma. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007. – B. 12–18.

[19] Rajabov Q., Inoyatov S. Buxoro tarixi. – Toshkent: Tafakkur, 2016. – B. 460.

[20] Ko‘li Malik jangi // O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild. – Toshkent: O‘zME nashriyoti, 2002. – B. 858.

[21] Zamonov A.T. Buxoro xonligining qo‘shin tuzilishi va harbiy boshqaruvi (XVI asr). PhD dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2018. – B. 15–20.

[22] Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994. – B. 153, 431.

[23] Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yozuvchi, 2008. – B. 368.

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

Najmi Soni Qarshi shahrini qamal qilib, tinch aholini ommaviy qirg‘in qildi. Biroq Ubaydullaxon taslim bo‘lmadi va G‘ijduvon qal'asi atrofida mudofaaning mustahkam tizimini barpo etdi[24].

1512-yil 12-noyabrda yuz bergan mashhur G‘ijduvon jangi jahon harbiy san'ati tarixiga oltin harflar bilan yozildi. Ubaydullaxon dushman qo‘shinini shahar tor ko‘chalari va qal'a devorlari orasiga jalb qilib, ularni harakat imkoniyatidan mahrum etdi hamda poydor va qanotlardan qat'iy zarba berdi[25]. Jangda Safaviy qo‘Shini to‘liq tor-mor etildi, Najmi Soni o‘ldirildi. Ushbu tarixiy g‘alaba natijasida Movarounnahr nafaqat siyosiy mustaqilligini saqlab qoldi, balki shialik mazhabining mintaqaga majburan kiritilishining oldi olindi va sunniylik e'tiqodi hamda milliy-diniy o‘zlik himoya qilindi [26].

2.2. Sulola tartiblariga sodiqlik va Buxoroning poytaxtga aylanishi

G‘ijduvon g‘alabasidan so‘ng Ubaydulla Sulton Movarounnahrda eng qudratli va obro‘li shaxsga aylandi. Biroq u Shayboniylar sulolasining turk-mo‘g‘ul an'anaviy davlat huquqi va tartiblariga qat'iy rioya qildi. Sulolaning yoshi ulug‘ vakillari Ko‘chkunchixon (1512–1530) va uning o‘g‘li Abu Saidxon (1530–1533) Samarqandda oliy xon deb e'lon qilingan bo‘lsada, amalda mamlakatning harbiy-siyosiy va ma'muriy jilovini Buxoro noibi Ubaydullaxon boshqarib bordi[27]. Fazlulloh ibn Ro‘zbehon Isfahoniy ta'kidlaganidek, Ubaydullaxon odob yuzasidan oliy taxtni katta amakisi Ko‘chkunchixonga topshirgan va o‘zi Buxoro viloyatining mustaqil hukumdori sifatda faoliyat ko‘rsatgan[28].

1533-yilda Abu Saidxon vafot etgach, Ubaydullaxon rasman Shayboniylar davlatining Oliy xoni deb e'lon qilindi va Buxoro taxtiga o‘tirdi (1533–1539). U oliy xon bo‘lgach, davlat poytaxtini Samarqanddan Buxoroga ko‘chirdi[29]. Buxoroning rasmiy va doimiy poytaxtga aylanishi natijasida ushbu davlat tarixda “Buxoro xonligi” nomi bilan yuritila boshlandi[30]. Ubaydullaxon hukmronligi davrida mamlakat chegaralari mustahkamlandi, Xuroson va Safaviylar bilan bo‘lgan doimiy to‘qnashuvlarda Buxoro xonligining harbiy va diplomatik mavqei yuksak darajaga ko‘tarildi[31].

UBAYDULLAXONNING MADANIY, DINIY VA MA'NAVIY FAOLIYATI MUARRIXLAR TALQINIDA

Shayboniy Ubaydullaxon nafaqat buyuk sarkarda va mohir davlat arbobi, balki o‘z davrining yetuk ilmiy va adabiy salohiyatga ega ma'rifatparvar hukmdori ham edi. Movarounnahr muarrixlari va chet el manbalari xonning ilm-fan, din, me'morchilik va san'at rivojiga qo‘shgan hissasi to‘g‘risida yakdil ijobiy fikrlarni bildiriShgan [32].

3.1. Diniy-tasavvufiy qarashlari va e'tiqodiy homiyligi

Ubaydullaxon yoshligidanoq o‘z zamonasining ko‘zga ko‘ringan allomalari va diniy ulamolaridan saboq olgan. U Amir Abdullah Yamani (Mir Arab), Xoja Muhammad Sadr, Xoja Mulla Isfahoniy,

---

[24] G‘iyosiddin Humomiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2013. – B. 104–108.

[25] Asqarov A., Ahmedov B.A. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi // O‘zbekiston ovozi, 1994. – B. 3–4.

[26] Sa'dullayev A., Aminov B., Mavlonov O‘., Norqulov N. O‘zbekiston tarixi: Davlat va jamiyat taraqqiyoti. – Toshkent: Akademiya, 2000. – B. 272.

[27] Bartold V.V. Uzbekskiye xanstva // Sochineniya, T. II (1). – Moskva: Nauka, 1963. – S. 140–141, 269.

[28] Vasil'yev A.D. Znamya i mech ot padiShakha: Politicheskiye i kul'turnyye kontakty xanstv Tsentral'noy Azii i Osmanskoy imperii. – Moskva: Probel, 2014. – S. 190.

[29] Barakayev J., Haydarov Y. Buxoro tarixi (eng qadimgi davrdan XIX asrgacha). – Toshkent: O‘qituvchi, 1991. – B. 67, 145.

[30] Mukminova R.G., Agzamova G. Buxarskoye xanstvo (emirat) // Ocherki po istorii gosudarstvennosti Uzbekistana. – Tashkent: Sharq, 2001. – S. 97–99.

[31] Ziyoyev H. Perepiska praviteley Sheybanidov i AShtarxanidov s Iranom i Indiyey // ObShchestvennyye nauki v Uzbekistane, № 3-4, 1992. – S. 99–109.

[32] Bilkan A.F. The Philosophical Poems (Hikmet) of Ubeydullah Khan // Bilig - Journal of Social Sciences of the Turkic World, No. 15, Autumn 2000. – P. 117–120.

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

Mavlono Mahmud Azizon va Mavlono YoShmuhammad Qori kabi allomalardan hadis, fiqh, tafsir va qiroat ilmlarini mukammal o‘rgangan[33]. Yamanning Hadhramaut viloyatidan Buxoroga kelgan mashhur tasavvuf piri Amir Abdullah Yamani (Mir Arab) Ubaydullaxonning ma'naviy piri, yaqin maslahatchisi va davlat ishlaridagi sodiq homiysi bo‘lgan [34].

Xon Naqshbandiya va Yesaviylik tariqatlariga chuqur ehtirom ko‘rsatgan. U Yesaviylik an'analarini davom ettirib, sodda va tushunarli turkiy tilda hikmatlar bitgan va bu orqali Movarounnahrda turkiy-islomiy milliy o‘zlikni hamda ma'naviy birlikni mustahkamlashga intilgan[35]. Husayn Busiriy va Mahdumi A'zam Kosoniy kabi yirik sufiy Shayxlar bilan doimiy muloqotda bo‘lib, saroyda ilmiy-diniy majlislar o‘tkazib turgan [36].

3.2. Adabiy va ilmiy me'rosi: She'riyat va xattotlik

Ubaydullaxon “Ubaydiy” va “Kul Ubaydi” taxalluslari bilan turkiy, forsiy va arab tillarida g‘azal, ruboiy, qasidalar hamda hikmatlar yaratgan [37]. Uning serqirra adabiy va ilmiy merosi bugungi kunda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan (inv. № 8931, 991-hijriy/1583-yilda ko‘chirilgan) mukammal Külliyatida jamlangan[38]. Külliyat tarkibida quyidagi asarlar o‘rin olgan:

• Turkiy va forsiy dildagi g‘azaliyot hamda devonlar;
• Arab tilida bitilgan “Maqolat” nomli diniy-falsafiy she'rlar;
• Qur'oni Karim qiroati va tajvid qoidalariga bag‘ishlangan “At-Tajvid” ilmiy risolasi;
• Fiqh va tahorat masalalariga oid “Kitabi Muqaddimatu-s-salat manzume fi haqqi masaili-l-vuzu" asari;
• Ahmad Yesaviy uslubida aruz va barmoq vaznida bitilgan turkiy “Hikmatlar” to‘plami;
• “Sabrname” (25 bayt) va “SHevkname” (24 bayt) nomli didaktik mesneviylar[39].

SHarqshunos olimlar (Eckmann, A.F.Bilkan, O‘nal Kaya, T.Yildirim) Ubaydiy She'riyatining eng muhim xususiyati – Alisher Navoiy va Ahmad Yesaviy an'analarini uzviy bog‘lagan holda turkiy adabiy tilda hikmatchilik maktabini qayta tiklaganligida deb ta'kidlaydilar[40]. Hindistonning Rampur Shahridagi Raza kutubxonasida saqlanayotgan 23 varaqli “Divan-i Ubeydi” qo‘lyozmasi xonning Yesaviyona hikmatlarining yana bir noyob nusxasidir[41]. Bundan taShqari, Ubaydullaxon xattotlik san'atining yettita xat uslubini (nasta'liq, suls, nasx va b.) mukammal egallagan bo‘lib, shaxsan o‘zi Qur'oni Karim nusxalarini ko‘chirib, Makkayi Mukarramaga sovg‘a sifatida yuborgan[42].

---

[33] Ubeydullah Han. Kure Ansiklopedisi. – Istanbul, 2023.

[34] Ubeydi, Ubeydullah Han // Tük Edebiyati İsimler Sözlüğü. – Ankara: Ahmet Yesevi Univ., 2021.

[35] Toparlı R. Ubeydullah Han'ın Şiirleri Üzerinde Bir Gramer Denemesi. – Erzurum: Atatürk Üniversitesi, 1986. – S. 113.

[36] Yılıdırım T., Büyükakkaş A. Ubeydu'llâh Han'ın İki Eseri: Sabrnâme ve Şevknâme // Modern Türklük Araştırmaları Dergisi, IV/1, 2007. – S. 87–101.

[37] Kaya Ö. Doğu Türk Yazı Dili ve Edebiyatı Araştırmaları I: Kul 'Ubeydi (XVI. Yüzyıl). – Bishkek, 2003. – S. 45.

[38] O‘zR FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi: Ubeydiy Külliyati, inv. № 8931, vr. 1b–346b.

[39] Rampur Raza Library (India): Divan-i Ubeydi manuscript, 23 folios, 16 hikmets.

[40] Ko‘prülü M.F. Türk Edebiyatında İlk Mutasavvıflar. – Ankara: Diyanet İşleri Başanlığı Yay., 1981. – S. 415.

[41] Pugachenkova G.A., Rempel L.I. Vydayushchiyesya pamyatniki arxitektury Uzbekistana. – Tashkent: Goslitizdat, 1958. – S. 213.

[42] Vaxitov M.M., Mirzayev Sh.R. Me'morchilik tarixi: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Tafakkur, 2010. – B. 154, 368.

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

3.3. Bunyodkorlik va ma'rifatparvarlik faoliyati

Ubaydullaxon Buxoroni xonlik poytaxtiga aylantirgach, shaharni obod qiliSh va madaniy markazga aylantirish borasida keng ko‘lamli qurilish ishlarini amalga oshirdi. Uning tashabbusi va harbiy g‘alabalari natijasida qo‘lga kiritilgan o‘ljalar hisobidan Buxoroda O‘rta Osiyo me'morchiligining tengsiz durdonasi – Mir Arab madrasasi (1530–1536-yillar) qad rostladi[43]. Ushbu madrasa piri Mir Arabga bag‘ishlab qurilgan bo‘lib, u asrlar davomida Movarounnahrning bosh islomiy oliy ta'lim dargohi bo‘lib xizmat qildi[44].

SHuningdek, Ubaydullaxon Karmana, Sabron va Buxoro viloyatlarida ko‘plab masjidlar, xonaqolar, rabotlar, suv omborlari (sardobalar) va sug‘orish kanallarini barpo ettirdi [45]. Buxoro saroyida boy kutubxona tashkil etilib, xonlikning barcha burchaklaridan, Shuningdek Hirot va Erondan eng yetuk xattotlar, miniatyurachi rassomlar, tarixchilar va shoirlar Buxoroga taklif etildi. Natijada Buxoro XVI asrning birinchi yarmida butun Musulmon sharqining eng yirik ilmiy-madaniy markazlaridan biriga aylandi[46].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, XVI asr mahalliy muarrixlari va davr manbashunosligi ma'lumotlarini atroflicha tahlil etish shayboniy Ubaydullaxon shaxsiyati va faoliyati haqida quyidagi muhim ilmiy-tarixiy xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

1. Movarounnahr va milliy davlatchilik xaloskori. Ubaydullaxon 1512-yildagi Ko‘li Malik va G‘ijduvon janglarida oz sonli qo‘shin bilan Safaviylar hamda Bobur qo‘shinlari ustidan qozonilgan buyuk g‘alabalar orqali Movarounnahrning siyosiy va milliy-diniy mustaqilligini saqlab qoldi. U Shialik ekspansiyasini to‘xtatib, Movarounnahrda sunniylik e'tiqodi va milliy o‘zlikni himoya qildi.

2. Buxoro xonligining poydevori. Ubaydullaxon sulolaviy tartiblarga sodiq qolgan holda 1533-yilda rasman Oliy xon taxtiga o‘tirgan bo‘lsada, 1512-yildan boshlab Movarounnahrning de-fakto harbiy va siyosiy rahnamosi edi. U poytaxtni Samarqanddan Buxoroga ko‘chirish orqali keyinchalik “Buxoro xonligi” deb nom olgan qudratli markazlashgan o‘zbek davlatiga poydevor qo‘ydi.

3. Serqirra ma'rifatparvar va adib. Ubaydullaxon “Ubaydiy” taxallusi bilan turkiy va forsiy tillarda yuksak badiiy va diniy-tasavvufiy asarlar yaratdi. U Ahmad Yesaviyning turkiy hikmatshunoslik maktabini XVI asrda qayta tikladi, Qur'on qiroati va fiqhga oid ilmiy risolar bitdi hamda xattotlik va musiqa san'atida yuqori natijalarga erishdi.

4. Mahalliy manbalar va muarrixlar e'tirofi. Zayniddin Vosifiy, Mirza Muhammad Haydar, Hasan Xoja Nisariy, Hofiz TaniSh Buxoriy, Muhammadyor Qatag‘an va Fazlulloh ibn Ro‘zbehon Isfahoniy kabi mahalliy muarrixlar o‘z asarlarida Ubaydullaxonni adolatli hukmdor, shijoatli sarkarda, taqvodor inson hamda ilm-fan va san'atning yuksak homiysi sifatida bir ovozdan e'tirof etganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmedov B.A. O‘zbekiston tarixi manbalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001. – B. 152–158.
2. Nurkulova R.R. Ubaidullakhan is a talented army leader // Web of Journals: Monthly Peer Reviewed Journal, Vol. 3, Issue 3, March 2025. – P. 180–184.
3. Jurayev B.T. XVI – XVIII asr o‘rtalarida Buxoro xonligining tarixshunosligi. Monografiya. – ToShkent: Denov TPDI, 2023. – B. 58–62.
4. Fayzraxmanova Z.I. Shayboniylar davriga oid manbalar tahlili // O‘zMU mustaqil tadqiqotchisi jurnali, Vol. 4, Issue 7, 2024. – B. 381–382.

[43] Qandaxarov A. Buxoro xonligi va unda karmanalik shayxlar faoliyati. Monografiya. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2018. – B. 203.

[44] Asrorova L. Buxoro madrasalari tarixidan. 2-tom. – Toshkent: Hilol, 2016. – B. 104.

[45] Vamberi A. O‘rta Osiyo bo‘ylab sayohat. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1990. – B. 170

[46] Murat O‘zkan. Buhara Hanlıg‘ı (1500–1920). – İstanbul: Kronik Kitap, 2021. – S. 111–126.

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

5. Ziyo A. O‘zbek davlatchiligi tarixi (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar). – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 235–241.
6. Fazlulloh ibn Ro‘zbehon Isfahoniy. Mehmonnomayi Buxoro (Zapiski buxarskogo gostya) / Tarjimon R.P.Jalilova, muharrir A.K.Arends. – Moskva: Nauka, 1976. – S. 162–202.
7. Muqimov Z. Shayboniylar davlati va huquqi (Tarixiy-huquqiy tadqiqot). – Toshkent: Adolat, 2007. – B. 43–48.
8. Zayniddin Mahmud Vosifiy. Badoe' ul-vaqoe' (Nodir voqealar) / Forsiydan Naim Norqulov tarjimasi. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1979. – B. 39–68.
9. Boldyrev A.N. Zaynad-din Vasifi, tadjikskiy pisatel XVI v. – Stalinabad: GPB, 1957. – S. 45.
10. Mirza Muhammad Haydar. Tarixi Rashidiy / Tarjimonlar: V.Rahmonov, Ya.Egamova. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 243–250.
11. Mirza Muhammad Haydar. Tarixi Rashidiy / Vvedeniye i perevod A.Urunbayeva, R.P.Djalilovoy, L.M.Yepifanovoy. – Tashkent: Fan, 1996. – S. 399, 728.
12. Hasan Xoja Nisariy. Muzakkiri ahbob (Do‘stlar yodnomasi) / Tarjimon I.Sultonov. – Toshkent: Meros, 1998. – B. 499.
13. Norik B.V. Rol' Shibanidskix praviteley v literaturnoy jizni Maverannaxra XVI v. // Raxmat-name. – SPb., 2008. – S. 230.
14. Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma (Sharafnomayi Shohiy). Birinchi kitob / Fors tilidan S.Mirzayev tarjimasi, so‘z boshi va izohlar B.Ahmedov. – Toshkent: Sharq, 1999. – B. 7–9, 416.
15. Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma (Sharafnomayi Shohiy). Ikkinchi kitob / Fors tilidan S.Mirzayev va Yu.Hakimjonov tarjimasi. – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 61, 288.
16. Muhammad Solih. Shayboniynoma (Doston) / Nashrga tayyorlovchi E.Shodiyev. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1989. – B. 217, 336.
17. Muhammadyor ibn Arab Qatag‘an. Musaxxir al-bilod / Fors tilidan tarjima va izohlar: I.Bekjonov, D.Sangirova. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – B. 429–430.
18. Rajabov Q., Ochilov E. Ubaydullanoma. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007. – B. 12–18
19. Rajabov Q., Inoyatov S. Buxoro tarixi. – Toshkent: Tafakkur, 2016. – B. 460.
20. Ko‘li Malik jangi // O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild. – Toshkent: O‘zME nashriyoti, 2002. – B. 858.
21. Zamonov A.T. Buxoro xonligining qo‘shin tuziliShi va harbiy boshqaruvi (XVI asr). PhD dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2018. – B. 15–20.
22. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994. – B. 153, 431.
23. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yozuvchi, 2008. – B. 368.
24. G‘iyosiddin Humomiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2013. – B. 104–108.
25. Asqarov A., Ahmedov B.A. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi // O‘zbekiston ovozi, 1994. – B. 3–4.
26. Sa'dullayev A., Aminov B., Mavlonov O‘., Norqulov N. O‘zbekiston tarixi: Davlat va jamiyat taraqqiyoti. – Toshkent: Akademiya, 2000. – B. 272.
27. Bartold V.V. Uzbekskiye xanstva // Sochineniya, T. II (1). – Moskva: Nauka, 1963. – S. 140–141, 269.
28. Vasil'yev A.D. Znamya i mech ot padishakha: Politicheskiye i kul'turnyye kontakty xanstv Tsentral'noy Azii i Osmanskoy imperii. – Moskva: Probel, 2014. – S. 190.
29. Barakayev J., Haydarov Y. Buxoro tarixi (eng qadimgi davrdan XIX asrgacha). – Toshkent: O‘qituvchi, 1991. – B. 67, 145.
30. Mukminova R.G., Agzamova G. Buxarskoye xanstvo (emirat) // Ocherki po istorii gosudarstvennosti Uzbekistana. – Tashkent: Sharq, 2001. – S. 97–99.
31. Ziyoyev H. Perepiska praviteley Sheybanidov i Ashtarxanidov s Iranom i Indiyey // Obshchestvennyye nauki v Uzbekistane, № 3-4, 1992. – S. 99–109.

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

32. Bilkan A.F. The Philosophical Poems (Hikmet) of Ubeydullah Khan // Bilig - Journal of Social Sciences of the Turkic World, No. 15, Autumn 2000. – P. 117–120.
33. Ubeydullah Han. Kure Ansiklopedisi. – Istanbul, 2023.
34. Ubeydi, Ubeydullah Han // Türk Edebiyati İsimler Sözlüğü. – Ankara: Ahmet Yesevi Univ., 2021.
35. Toparlı R. Ubeydullah Han'ın Şiirleri Üzerinde Bir Gramer Denemesi. – Erzurum: Atatürk Üniversitesi, 1986. – S. 113.
36. Yılıdırım T., Büyükakkaş A. Ubeydu'llâh Han'ın İki Eseri: Sabrnâme ve Şevknâme // Modern Türklük Araştırmaları Dergisi, IV/1, 2007. – S. 87–101.
37. Kaya Ö. Doğu Türk Yazı Dili ve Edebiyatı Araştırmaları I: Kul 'Ubeydi (XVI. Yüzyıl). – Bishkek, 2003. – S. 45.
38. O‘zR FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi: Ubeydiy Külliyati, inv. № 8931, vr. 1b–346b.
39. Rampur Raza Library (India): Divan-i Ubeydi manuscript, 23 folios, 16 hikmets.
40. Ko‘prülü M.F. Türk Edebiyatında İlk Mutasavvıflar. – Ankara: Diyanet İShleri BaShkanlıg‘ı Yay., 1981. – S. 415.
41. Pugachenkova G.A., Rempel L.I. Vydayushchiyesya pamyatniki arxitektury Uzbekistana. – Tashkent: Goslitizdat, 1958. – S. 213.
42. Vaxitov M.M., Mirzayev Sh.R. Me'morchilik tarixi: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Tafakkur, 2010. – B. 154, 368.
43. Qandaxarov A. Buxoro xonligi va unda karmanalik Shayxlar faoliyati. Monografiya. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2018. – B. 203.
44. Asrorova L. Buxoro madrasalari tarixidan. 2-tom. – Toshkent: Hilol, 2016. – B. 104.
45. Vamberi A. O‘rta Osiyo bo‘ylab sayohat. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1990. – B. 170.
46. Murat O‘zkan. Buhara Hanlıg‘ı (1500–1920). – İstanbul: Kronik Kitap, 2021. – S. 111–126.

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.